QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 22-aprel 121-4-60-Q/25 Koson tuman hokimligi

Koson tumani hududida tashkilot va korxonalarda harbiy hisob va zirxlash holatini 2025-yilda olib borilishi bo‘yicha tekshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘sidagi Nizom ijrosini ta’minlash maqsadida,O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126 – moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunning 6 - moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN.

1. Tuman hududidagi barcha tashkilot, korxonalarda harbiy hisob va zirxlash holatini tekshirilishi **1 ilovaga** asosan amalga oshirilsin;

2.Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (Z.Hasanov)ga, tuman hududida joylashgan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilotlarda, korxonalarda, muassasalarda, bir yilda bir marotoba harbiy hisob va zirxlash ahvolini tekshirib borish;

-tashkilot, korxonlarda harbiy hisob va zirxlash ishlarini olib borishini tekshirish uchun ishchi guruh tuzish va reja asosida ish olib borish;

-tashkilot, korxona raxbarlarini tekshirish boshlanishidan kamida 3 kun oldin yozma ravishda ogoxlantirish topshirilsin.

3.Tashkilot, korxona raxbarlari tekshiruv vaqtida tekshirish uchun tegishli bo‘lgan mansabdor shaxslar va xujjatlarni tekshiruv guruhi talabi asosida taqdim etsinlar, hamda ularning ishlari uchun shart sharoitlar yaratib bersinlar.

4.Tuman Mudofaa ishlari buyicha bo‘limi boshlig‘i (Z.Hasanov)ga, tekshiruv o‘tkazilganligi to‘g‘risida dalolatnoma tuzish va tegishli korxona, tashkilot raxbarlari tanishuvi bilan ularning yuqori tashkilotlariga bir nusxasini yuborish yuklatilsin.

5.Tashkilot, korxona raxbarlari harbiy hisobni yuritish va zirxlash bo‘yicha hodimlar bo‘limi boshliqlarini kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida tuman

mudofaa ishlari bo‘limida bo‘ladigan bir kunlik o‘quvga hodimlar (kadrlar) bo‘limi boshliqlari qatnashishlarini ta’minlasinlar.

6.Tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (Z.Hasanov)ga yil yakunida qarorni bajarilishi bo‘yicha tuman hokimligiga yozma axborot berish topshirilsin.

7. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tumani hokimining
2025-yil 22-apreldagi
121-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

2025 yilda Koson tuman hududidagi tashkilot, korxonalarda harbiy xisobni yuritilishi va zixrlash ishlarini olib borish tartibi

R E J A S I

№	Tashkilot nomi	Tekshirish vaqti	Tekshirilganligi haqida belgi
1.	SEO va JS Koson tuman bo‘limi	03.06.2025 yil	
2.	Koson Mikrokreditbank	12.06.2025 yil	
3.	Koson neftgaz qidiruv ekspeditsiyasi	27.06.2025 yil	
4.	Koson Agrobank	10.07.2025 yil	
5.	Neft va gaz quduqlarini sinash AJ	25.07.2025 yil	
6..	Koson tuman YFUK	14.08.2025 yil	
7.	Koson tibbiyot birlashmasi	22.08.2025 yil	
8.	1-son kasb hunar maktabi	11.09.2025 yil	
9.	2-son kasb hunar maktabi	24.09.2025 yil	
10.	3-son kasb hunar maktabi	10.10.2025 yil	
11.	Koson tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	16.10.2025 yil	
12.	Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Koson tuman filiali	23.10.2025 yil	
13.	Hududiy gaz ta’minoti viloyat MCHJ Koson tumani “Kosontumangaz” filiali	11.11.2025 yil	
14.	"O‘zbekiston pochtasi" aksiyadorlik jamiyati Koson filiali	20.11.2025 yil	
15.	“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Koson filiali	27.11.2025 yil	
16.	Qashqadaryo viloyati Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasi	12.12.2025 yil	
17.	Qashqadaryo viloyati avtomobil yo‘llari hududiy Bosh boshqarmasi Koson tuman yo‘llaridan foydalinish unitar korxonasi	18.12.2025 yil	
18.	Koson tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	24.12.2025 yil	